

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BO‘RONOVA GULNORA YODGOROVNA

**VIRTUAL TA’LIM PLATFORMASI ASOSIDA ROBOTOTEXNIKA
TO‘GARAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**
(umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
annotatsiyasi mundarijasi**

**Оглавление аннотация диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Bo'ronova Gulnora Yodgorovna

Virtual ta'lim platformasi asosida robototexnika to'garagi faoliyatini
takomillashtirish metodikasi (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida) 3

Буронова Гульнора Ёдгоровна

Метод совершенствования деятельности кружка робототехники на базе
виртуальной образовательной платформы (на примере средней
общеобразовательной школы) 23

Buronova Gulnora Yodgorovna

A method for improving the activities of a robotics circle based on a virtual
educational platform..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BO‘RONOVA GULNORA YODGOROVNA

**VIRTUAL TA’LIM PLATFORMASI ASOSIDA ROBOTOTEXNIKA
TO‘GARAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI
(umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Ped3864 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mo'minov Bahodir Boltayevich
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Lutfillayev Mahmud Hasanovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Murodova Feruza Rashidovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli Ilmiy kengashning 20__ yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0 365) 221–29–14; faks: (0 365) 221–57–27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0 365) 221–25–87).

Dissertatsiya avtoreferati 20__ yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(20__ yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

S.Q. Qahhorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

A.R. Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d
(PhD), professor

H.O. Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d (DSc).,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda robototexnika elementlarini innovatsion texnologiyalar asosida umumiy o'rta ta'lim maktab davridan o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning samarali usuli hisoblangan virtual ta'lim platformalaridan foydalanib, ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida keng foydalanilmoqda. Ta'lim oluvchilarning turli yosh toifalarini hisobga olgan holda ta'lim uchun mo'ljallangan VEX, BQ, Fischertechnik, Huna, Matrix, Robotis Bioliod, Scratchduino, Tetrix, Lego Education kabi robototexnika va dasturlash konstruktorlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, mantiqiy fikrlash va loyihalash, konstruktiv tushunchalarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Biroq, robototexnikani o'rgatish bo'yicha moddiy texnik bazasi mavjud bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim maktablari to'garaklar jarayonida o'quvchilarga robototexnika, modellash, konstruksiyalash, jarayonlarni dasturlashni virtual ta'lim muhiti asosida o'qitish muammolarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining mantiqiy fikrlashi va loyihalash, konstruktiv tushunchalarini rivojlantirishda robototexnika to'garaklari vositalaridan keng foydalanish hamda boshlang'ich sinfdan boshlab texnik qurilmalar bilan ishlash ko'nikmalarni shakllantirish muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan Italiya, Angliya, Amerika, Finlandiya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi mamlakatlarning ta'lim tajribasida maktabgacha ta'lim davridan robototexnika elementlarini qurish-yasash orqali o'qitish, boshlang'ich sinfda robotlarni modellashtirish, yuqori sinflarda dasturlashtirish ta'lim dasturi mazmuniga kiritilgan.

Mamlakatimizda o'quvchilarning zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalardan unumli foydalanishi va dasturlash, robototexnika elementlarini o'rganishi uchun yetarli shart-sharoit yaratilib, respublikamizning har bir tumanlarida IT-markazlari¹ faoliyati yo'lga qo'yilib, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va didaktik, metodik ta'minotini rivojlantirish hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga doir muhim vazifalar amalga oshirildi. Ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri «2030 yilgacha qo'shimcha ta'lim muassasalarida robototexnika, axborot texnologiyalari va dasturlash kabi zamonaviy to'garaklar ulushini 20 foizga oshirish²»dan iborat bo'lib, bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablarida robototexnikani o'qitishning didaktik imkoniyatlarini oshirish, to'garak mashg'ulotlari metodik ta'minotni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda o'quvchilarning robototexnika bo'yicha xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi uchun umumiy o'rta ta'lim maktablaridan boshlab o'rgatishni yo'lga qo'yish orqali xorijda ishlab chiqarilayotgan robototexnik konstruktorlar mavjud bo'lib, bunday konstruktorlar bilan respublikamizdagi barcha maktablarni bir vaqtda ta'minlash masalalariga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.

e'tibor qaratila boshlandi. Bu borada onlayn so'rovnoma o'tkazilganda, aksariyat o'quvchilar robototexnikaga qiziqishlarini izohlab, konstruktor detallari va jihozlar bilan bir qatorda robototexnikaga doir mutaxassis pedagog kadrlar yetishmasligi haqida fikr bildirganlar. Respublikamizning barcha viloyat markazlarida "Barkamol avlod" maktablarida robototexnikaga oid maktabdan tashqari to'garaklar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, tuman markazlarida esa ushbu jarayon qisman amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etishda virtual ta'lim platformasi orqali robototexnikaning virtual konstruktorlaridan foydalanib to'garak mashg'ulotlarini sifatli o'qitishni tashkil etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son, 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-5712-son Farmonlari va 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son, 2019-yil 30-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4467-son Qarorlari hamda 2020-yil 23-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son Qonuni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakat olimlaridan J.Beran, B.D.Broll, C.C.Fernandes, D.P.Figueiredo, Ch.Giang, H.T.Hinton, S.Sh.Marshall, R.J.Morris, N.Pohner, E.D.Restpero, S.Papert, E.Senft, D.Scaradozzia, Ch.Swanwick va boshqalar robototexnikani fan sifatida umuta'lim maktablarida o'qitish masalalari, robototexnika konstruktorlaridan o'qitish jarayonida samarali foydalanishning nazariy hamda amaliy muammolarga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida robototexnikani o'qitish muammolari va yechimlari S.A.Filippov, V.A.Berezina, S.G.Grigorev, L.A.Yemelyanova, M.G.Yershov, A.V.Litvin, T.V.Nikitina, S.S.Sorokin, V.V.Tarapata, V.I.Filippov, Ye.I.Yurevichlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda ta'lim mazmunini va metodikasini takomillashtirish, o'quv jarayonining interfaolligini oshiruvchi virtual ta'lim texnologiyalari hamda

innovatsion metodlardan foydalanish yuzasidan A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, M.H.Lutfillayev, U.Sh.Begimqulov, U.Yu.Yuldashev, R.R.Boqiyev, F.M.Zakirova, N.I.Taylaqov, A.G'.Hayitov, B.B.Mo'minov va bir qator ilmiy maktablar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Respublikamizda ta'lim robototexnikasi sohasidagi mahalliy ishlanmalar qisman mavjud bo'lib, O.A.To'ychiyevning ilmiy tadqiqot ishida fizika darslarida robototexnika elementlaridan o'quv vositasi sifatida foydalanish masalalari o'rganilgan.

Yuqorida izohlangan ilmiy izlanishlar va manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim robototexnikasi masalalari bo'yicha tadqiqot ishini bajarish ehtiyoji mavjudligini inobatga olgan holda, moddiy texnik bazasi mavjud bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim maktablarida robototexnika to'garak mashg'ulotlarini virtual ta'lim platformasi asosida o'qitish masalalari yuzasidan tadqiqot ishi mavzusini "Virtual ta'lim platformasi asosida robototexnika to'garagi faoliyatini takomillashtirish metodikasi" deb nomlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Sun'iy intellektga asoslangan onlayn kurslar uchun platforma yaratish" (2022-2023 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi virtual ta'lim platformasi asosida robototexnika to'garagi mashg'ulotlarini o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

robototexnikani o'qitishda zarur bo'lgan konstruktorlar va ta'limiy dasturlar, to'garaklar faoliyatida ijodiy yondashuvlarni qo'llash bosqichlari asosida innovatsion tamoyillar orqali mashg'ulotlarni amalga oshirish jarayonining komponentlarini aniqlashtirish;

konstruktorlardan foydalanib robotning virtual modelini yasash, simulatsiyalash asosida robototexnika to'garak mashg'ulotlarini o'qitish metodikasi takomillashtirish;

robototexnika to'garak faoliyatida virtual ta'lim platformasidan foydalanish orqali o'qitish modelini mazmunan takomillashtirish;

robototexnika to'garagi faoliyatini virtual ta'lim platformasi va konstruktor dasturlarini amaliy integratsiyalash asosida interfaol metodlardan foydalanib baholash me'zonlarini aniqlash hamda mustaqil ta'limni rivojlantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida virtual ta'lim platformasi asosida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga robototexnika to'garagi mashg'ulotlarini o'qitish jarayoni belgilanib, Namangan, Navoiy, Buxoro viloyatlari xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan jami 502 nafar o'quvchilar pespondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti virtual ta'lim platformasi asosida robototexnika to'garagi mashg'ulotlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, umumlashtirish, so'rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ta'lim robototexnikasini o'qitishda konstruktorlar va robototexnika ta'limiy dasturlari to'garaklar faoliyati konstruktivlik, kreativlik, texnologik, ijodiy yovdashuvlarni qo'llash bosqichlari hamda loyihalash, izchillik, ko'rgazmalilik, ta'linda ongillik va faollik tamoyillariga ustivorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

konstruktorlardan foydalanib robotni loyihalash va modellashtirishga qaratilgan intuitiv interfeysli ta'limiy dasturlarni virtual ta'lim platformasi va integrativ simulatsiyalash orqali robototexnika to'garak mashg'ulotlarini o'qitish metodikasi mazmunan takomillashtirilgan;

to'garak faoliyatini virtual ta'lim platformasi orqali o'qitish modeli innovatsion vositalar (multimedia mahsulotlari, 3D animatsiyalar, virtual simulyatorlar, intellektual o'yinlar)ning didaktik imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, kreativlik, texnik-konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid texnologik yo'riqnomalarni mazmunan singdirish asosida takomillashtirilgan;

robototexnika to'garagi faoliyatini virtual ta'lim platformasi va konstruktor dasturlarini amaliy virtuallik (uch o'lchamli model) va illyustrativlik (animatsiya, simulatsiya) xususiyatlarini integratsiyalash asosida diagnostik baholash mezonlari aniqlanib, innovatsion kreativ faoliyatga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantiruvchi "Detalni top", "Juftini aniqla", "Problem Solving", "Tanqidiy fikrla" interfaol metodlardan foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Robototexnika" to'garagi o'quvchilarining virtual konstruktor va simulatsiya dasturlari asosida robotlarni loyihalashga oid ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha amaliy ko'rsatmalari, QR kodli onlayn topshiriqlaridan sinfdan tashqari ta'limni rivojlantirishda o'quv-metodik ta'minot sifatida "Virtual robototexnika" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

"Lego Digital Designer", "Bricklink Studio 2.0", "TinkerCAD", "Virtual Robotics Toolkit" dasturlaridan foydalanish orqali robototexnika to'garagi faoliyatiga virtual, innovatsion xarakterli, kreativ yondashadigan, loyihalash va modellashtirish kabi robokonstruktorlik ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

robototexnika to'garagi mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish, to'garak rahbarlarining virtual robot modellarini loyihalashning innovatsion usullaridan foydalanib o'quvchilarning kreativ-ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida video ma'ruza, yo'riqnomali videodars, robot modelini bosqichma-bosqich yaratishga asoslangan video dars, ta'limiy o'yinlar, taqdimotlar kabi ta'lim kontentlarini qamrab olgan "robomaktab.uz-Robototexnikani o'qitishga mo'jallangan virtual ta'lim platformasi" ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari tahlili yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, ishlab chiqilgan platforma umumiy o'rta ta'lim maktablarining robototexnika to'garaklarini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, mashg'ulot jarayonlarini tizimli yondashuvlar asosida tashkil etish, to'garak dasturi mazmunini virtual ta'lim platformasi asosida takomillashtirish orqali ta'limni rivojlantirishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining mantiqiy fikrlashi, muhandislikka oid loyihalash-konstruktorlik, texnik-texnologik jarayonlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalardan o'quv, metodik qo'llanmalar ishlab chiqishni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi virtual ta'lim platformasi asosida robototexnika to'garagi faoliyatini takomillashtirish metodikasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

robototexnika to'garagi faoliyatini virtual ta'lim platformasi va konstruktor dasturlarini amaliy virtuallik (uch o'lchamli model) va illyustrativlik (animatsiya, simulatsiya) xususiyatlarini integratsiyalash asosida diagnostik baholash mezonlari aniqlanib, innovatsion kreativ faoliyatga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantiruvchi "Detalni top", "Juftini aniqla", "Problem Solving", "Tanqidiy fikrla" interfaol metodlardan foydalanishga oid tavsiyalardan Buxoro muhandislik texnologiya institutining AIF-2/20 raqamli "Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida malakali injener kadrlar tayyorlash va professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish sifatini yaxshilash" (2019-2022 yy.) mavzusidagi grant loyihasini "Talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishga qaratilgan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga tadbqiq etish" qismini bajarishda foydalanilgan (Buxoro muhandislik texnologiya institutining 2022-yil 20-oktabrdagi 02/01-89-1056-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning umumtexnik ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning innovatsion, mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari rivojlantirilgan;

ta'lim robototexnikasini o'qitishda konstruktorlar va robototexnika ta'limiy dasturlari to'garaklar faoliyati konstruktivlik, kreativlik, texnologik, ijodiy yovdashuvlarni qo'llash bosqichlari hamda loyihalash, izchillik, ko'rgazmalilik, ta'limda onglilik va faollik tamoyillariga ustivorlik berish orqali aniqlashtirishga oid takliflari "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug'i, 356/7-106 raqamli guvohnomasi). Natijada, robototexnikani mustaqil o'rganuvchilar uchun didaktik shart-sharoit

yaratilib, to'garak faoliyatini amalga oshirishda ijodiy yondashuvlar orqali ta'lim samaradorligiga erishilgan;

to'garak faoliyatini virtual ta'lim platformasi orqali o'qitish modeli innovatsion vositalar (multimedia mahsulotlari, 3D animatsiyalar, virtual simulyatorlar, intellektual o'yinlar)ning didaktik imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, kreativlik, texnik-konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid texnologik yo'riqnomalari "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrug'i, 166-180 raqamli guvohnomasi). Natijada, virtual ta'lim muhitida robototexnikani o'rganuvchilarning texnik-konstruktorlik va loyihalash-modellashtirishga oid kreativligini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 33 ta ilmiy metodik ishlar chop etilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tavsiyasiga ko'ra 1 ta o'quv qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda jami 10 ta (5 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnalda) maqola chop etilgan bo'lib, Intellektual mulk agentligining 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 124 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Robototexnika to'garagi faoliyatini virtual ta'lim platformasi asosida takomillashtirishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida ta'lim robototexnikasi zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishi sifatida tahlil qilinib, robototexnikani o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar asosida konstruktorlardan foydalanish metodologiyasi va robototexnika to'garagi mashg'ulotlarini o'qitishda virtual robototexnika konstruktor dasturlari va ta'lim platformalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari keltirilgan.

Robototexnikani o'qitishda zarur bo'lgan rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida qo'llanilayotgan Fable, Fischertechnik, Hiwonder, Huna, KEYi Tech, Lego Education, Makeblock, Matrix, Mobsya, Mojobot, Pitsco Tetrix, Arduino,

Robotical, Robotis, Robo Wunderkind, Studica, Scratchduino, Ubtech, VEX Robotics, Robotrek, Evolvektor kabi robototexnika konstruktorlaridan respublikamiz ta'lim tizimining imkoniyatlari va milliy ta'lim dasturi mazmunini inobatga olgan holda, Lego WeDo2.0, Lego Mindstorms, Arduino konstruktorlaridan foydalanish, robototexnika to'garaklarini o'qitishda nisbatan samarali va to'garak ishtirokchilarining oson o'zlashtirishlariga sabab bo'lishini inobatga olib, ushbu konstruktorlardan foydalanish metodologiyasi tahlil qilindi.

Lego Education Mindstorms EV3ni o'quv jarayonida qo'llash murakkab muammolarni hal qilishni qiziqarli tadqiqot jarayoniga aylantiradi, bu nafaqat o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishga, balki boshqa har qanday mavzularni o'rganish vositasini o'zlashtirishga imkon beradi. EV3 platformasi ijodiy alternativ yechimlarni topish uchun noyob vosita sifatida ishlab chiqilgan, jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantirishga, g'oyalarni birgalikda amalga oshirishga va loyiha faoliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Arduino – professional bo'lmagan robototexnika foydalanuvchilar uchun dasturiy va texnik ta'minotlar yig'indisi. Arduino mutloq ochiq arxitektura bo'lib, undagi barcha konstruktor qismlari va dasturiy ta'minot ochiq tarqatiladi. U o'zining platasi va IDE-dasturlash muhitiga ega. Arduino muvaffaqiyatga erishiga sabab bo'luvchi loyihalar yaratish imkonini beruvchi platformalardan biridir.

LDD – bu virtual modellashtirish uchun yuqori sifatli va puxta o'ylangan dastur bo'lib, u juda ko'p afzalliklarga ega. LDD dasturining afzalliklari: detallarining 700 dan ortiq turlari; nusxalash funksiyasi asosida cheksiz sonli detallardan modellarni yaratish qobiliyati; dastur kompyuterda kam joy egallashi; intuitiv interfeysga ega, shuning uchun undan o'quvchilar mustaqil foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

LDD virtual konstruktor dasturining yangi versiyasi BrickLink Studio 2.0 virtual ta'lim platformasi ko'rinishini olgan. Bu Lego kompaniyasining LDD o'rnini bosuvchi yangi zamonaviy virtual ta'lim platformasi bo'lib virtual muhitda uch o'lchamli robot modellarini yaratishda keng foydalaniladi.

TinkerCAD virtual ta'lim platformasi quyidagi imkoniyatlarga ega: elektron sxemalarni vizual qurish uchun qulay grafik elektron sxema simulyatori; port monitori va bosqichma-bosqich deshifrlash qobiliyatiga ega o'rnatilgan Arduino muharriri; Visual Arduino kodi muharriri C++ hamda Scratch vizual dasturlash bloklari yordamida dasturlash imkoniyati; TinkerCAD funksiyasining boshqa qismlari bilan integratsiya qilish va ishlab chiqilgan modelni 3D printerda chop etish; Arduino platasi va to'plam detallari bilan virtual muhitda ishlay oladi.


Virtual Robotics Toolkit Lego Mindstorms EV3 dasturiy ta'minotini va LDD da yaratilgan virtual robot modelini simulyatsiya qilish imkonini beradi. Virtual Robotics Toolkit (VRT) – robototexnika to'garaklarida virtual robot modellarini simulatsiyalash orqali sinovdan o'tkazish uchun qulay dasturdir. Simulyator yuqori darajada sozlash va ko'p qirrali imkoniyatlarga ega bo'lib, Lego Education Mindstorms EV3 dasturiy ta'minotiga mos keladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega: EV3 dasturiy ta'minotini qo'llab-quvvatlaydi; LEGO Digital Designer kabi

bepul SAPR vositalaridan robot modelini import qilish; virtual robot va dastur kodini bog‘lash orqali simulyatsiyani amalga oshiradi.

Virtual Robotics Toolkit va Autodesk Tinkercad simulyatsion muhitlari robototexnikani o‘rganishda hamda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari uchun mos tarzda Lego Mindstorms EV3 va Arduino platformalarida kreativ loyihalar yaratishda samarali vosita bo‘lib hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Virtual ta’lim platformasi asosida robototexnika to‘garagi faoliyatini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida robototexnika to‘garagi mashg‘ulotlarini virtual ta’lim muhiti orqali dasturiy vositalardan foydalanib o‘qitish bosqichlari, to‘garak dasturi va virtual ta’lim platformasi o‘quv kontentlarini ishlab chiqish va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida robototexnika to‘garagi mashg‘ulotlarini virtual ta’lim platformasi asosida o‘qitish modeli hamda metodikasini takomillashtirilganli haqida fikrlar bayon qilingan.

Robototexnika konstruktorlar bilan umumiy o‘rta ta’lim maktablari jihozlanmaganligini inobatga olib, ular o‘rniga virtual konstruktor dasturlari hamda simulyatordan foydalanish zarur. Ushbu dasturlar haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda kompyuterda robot modelini yasash va sinovdan o‘tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu o‘z-o‘zidan katta miqdorda mablag‘lar tejalishiga olib keladi. Ta’lim robototexnikasida simulyatsiya dasturlaridan foydalanib, mashg‘ulotlarni tashkil etish robot modelini virtual muhitda sinovdan o‘tkazishga imkonini beradi. Moddiy texnik bazasi mavjud bo‘lmagan sharoitda Virtual Robotics Toolkit, Tinkercad-Arduino simulyator dasturdan foydalanishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. O‘quvchilar robot modelini yaratishda esa virtual konstruktor dasturlaridan foydalanadi. Konstruktorlarning prototiplari bo‘lgan bunday dasturlardan foydalanishda yosh toifalarini hisobga olish muhim (1-rasmga qarang).



1-rasm. Robototexnika konstruktorlarning prototiplari bo‘lgan ta’limiy dasturlar asosida robototexnikani o‘qitish bosqichlari

Ushbu bosqichlar o‘quvchilarning yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlarini, milliy dasturdagi informatika, fizika va texnologiya fanlaridan egallagan fundamental bilimlarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi. Bunda 13

yoshli o'quvchi 5-sinfda informatika fanida kompyuter va qurilmalaridan foydalanishni o'rganadi va virtual robototexnika konstruktori Bricklink Studio 2.0 dasturida ishlashi uchun zarur bilimlarni egallagan bo'ladi. 14 yoshli o'quvchi 6-sinfda fizika darslarida mexanika va elektr hodisalari haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lganligi, informatika darslarida Scratch muhitida vizual dasturlashni o'rganganligini inobatga olib, Lego Digital Designer dasturining Lego Mindstorms EV3 virtual konstruktor detallarining ishlash prinsipini tushuna oladi va Virtual Robotics Toolkit simulyatsion muhitida robotni dasturlashtirib, sinovdan o'tkaza oladi. 15 yoshli o'quvchi 7-sinfda informatika darslarida internetdan to'g'ri foydalanishni, fizika darslarida esa elektr zanjirlari haqida zarur bilimlarni olganligini hisobga olgan holda TinkerCAD virtual ta'lim platformasida ro'yxatdan o'tib, Arduino platasi va zanjir detallaridan foydalanib, loyihalar ustida mustaqil ishlay oladi hamda simulatsiyalash asosida sinovdan o'tkazadi.

Quyida "Robo Advansed" to'garak mazmuni keltirilgan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ushbu dastur informatika xonasida robomaktab.uz virtual ta'lim platformasi va robototexnikaga oid dasturiy vositalarni amaliy integratsiyalash asosida o'qitildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

"Robo Advansed" robototexnika to'garagi o'quv dasturi

| № | Mavzular | Soat | Mashg'ulot turi |
|-------------|--|----------------|-----------------|
| 1. | Robototexnika va uning zamonaviy dunyodagi o'rni. Robototexnikada qo'llaniladigan virtual konstruktor dasturlari. | 1 | nazariy |
| 2. | Virtual robototexnikaga kirish. Konstruktorlik. Robotlarni konstruksiyalash bo'yicha ma'lumot. | 1 | nazariy |
| 3. | Virtual robotlarni yaratishda Lego Digital Designer(LDD) dasturidan foydalanish. LDD interfeysi. Dastur oynasi, buyruqlar palitrasi, boshqaruv paneli. LDDda tassavurdagi robot loyihasini tayyorlash. | 1 | nazariy |
| 4. | LDD dasturida Lego WeDo 2.0 virtual konstruktoridan foydalanib, detallarni nomi va bajaradigan vazifasini o'rganish. | 1 | amaliy |
| 5. | Lego WeDo 2.0 detallaridan foydalanib sodda robot modelini loyihalash. Harakat mexanizmlarini bajaradigan vazifasiga ko'ra robot modelini loyihalashda qo'llash. | 1 | amaliy |
| 6. | Lego Mindstorms EV3 to'plami asosiy detallarni o'rganish ikki motorli robotni loyihalash. | 1 | amaliy |
| 7. | Lego Mindstorms Education dasturidan foydalanib robot modelini dasturlash buyruqlarini o'rganish. | 1 | amaliy |
| 8. | Virtual Robotics Toolkit dasturida robot virtual modelini dasturlashtirish, simulatsiyadan o'tkazish. | 1 | amaliy |
| 9. | Arduino platasi va uning qurilmalari tavsifi. Virtual Arduino platformasidan foydalanish imkoniyatlari. | 1 | amaliy |
| 10. | TinkerCAD platformasi va uning qurilmalari tavsifi. Svetodiodlar va Arduino platformasidan foydalanish imkoniyatlari. Svetodiodni yoqib o'chirish, svetofozni loyihalash. | 1 | amaliy |
| Jami | | 10 soat | |

Yuqoridagi bosqichlar asosida virtual konstruktor dasturlari va simulatsion muhitlarni integratsiyalash orqali to‘garak dasturlarini ishlab chiqishda:

1. 5- sinf o‘quvchilari uchun “Robo start” to‘garak dasturi Lego Digital Designer (Lego Wedo 2.0) va Scratch da dasturlash;

2. 6-7- sinflar uchun “Robo intermediate” to‘garak dasturi Lego Digital Designer dasturining Lego Mindstorms bo‘limi (Lego Mindstorms EV3) va Lego Mindstorms EV3 Education da dasturlash, Virtual Robotics Toolkitda simulatsiya qilish;

3. 8-sinf dan kattalar uchun “Robo Advanced” to‘garak dasturi TinkerCAD platformasi +Arduino va C++ da dasturlash kabi ta’limiy dasturlar inobatga olindi.

Robotexnika to‘garak dasturi bo‘yicha faoliyat har bir yangi o‘quv yilida mustaqil o‘qish istagini bildirgan o‘quvchilar bilan ishlash uchun tuziladi. Dastur robototexnika bo‘yicha bilimlarni shakllantirish uchun zarur ta’lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Ushbu dasturda texnologiya, informatika, fizika sohasidagi bilimlar asosida o‘quvchilar robototexnikani o‘rganadilar, asosiy tushunchalar bilan tanishadilar, konstruktorlash, algoritmlash asoslarini tushunishlari, dasturlashni o‘rganishi, robotni qanday qilib yig‘ib, simulatsiya qilish haqida mustaqil bilimlarga ega bo‘ladi. O‘quvchilar nafaqat nazariy jihatlarni o‘rganadi, dasturlar orqali faol amaliy faoliyat bilan shug‘ullandi.

Virtual ta’lim platformasi asosida robototexnika to‘garagi mashg‘ulotlarini o‘tkazishning takomillashtirilgan modelida robototexnikani o‘rganishda yosh toifalari hisobga olgan holda robototexnika ta’limiy dasturlari orasidagi bog‘lanish, texnik ijodkorlik kompetensiyalarni shakllantirishga oid yondashuvlar, tamoyillar, o‘quv texnik, dasturiy, pedagogik ta’minot hamda ta’lim mazmuni, uni amalga oshirish jarayoni ifodalandi. Modelning konseptual komponentida konstruktiv, kreativ, texnologik, ijodiy-izlanuvchilik yondashuvlar asosida robototexnika to‘garak mashg‘ulotlari tashkil etiladi. To‘garak mashg‘ulotlari loyihalash, izchillik, ko‘rgazmalilik, ta’limda ongliklik va faollik tamoyillari orqali o‘qitildi.

Modelning tashkiliy texnologik komponentlari o‘quv texnik ta’minot, o‘quv dasturiy ta’minot, pedagogik dasturiy vositalar, o‘quv kontentlarini o‘z ichiga olgan. Bunda o‘quv texnik ta’minot uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarining kompyuterlar bilan jihozlangan informatika xonasidagi kompyuterlar, o‘quv dasturiy ta’minot uchun esa LDD, Bricklink Studio 2.0, 3DTinkerCad virtual konstruktor dasturlari hamda Virtual Robotics Toolkit, TinkerCAD-Arduino simulyatorlari qo‘llanilgan.

Virtual robototexnika to‘garagi mashg‘ulotlarini o‘qitish asosida o‘quvchilarda loyihalash, modellashtirish, konstruksiyalash, mantiqiy fikrlash va dasturlash kompetentligini shakllantirish hamda rivojlantirish yo‘llari, to‘garaklarda o‘quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish modeli takomillashtirildi. Virtual ta’lim platformasi asosida robototexnika to‘garagi mashg‘ulotlarini o‘tkazishning takomillashtirilgan modelining maqsad, jarayon, natijaviy komponentlari mazmuni quyidagilardan iborat. “Robototexnika” to‘garak faoliyati jarayonida bunday dasturlar yordamida o‘quvchi virtual robot modelini yaratadi, robotning funksional

vazifasini bloklar yoki dasturlash tili asosida dasturlashtiradi va simulyatorlar vositasida sinovdan o'tkazadi. To'garak mashg'ulotlari yuqoridagi robototexnika ta'limiy dasturlari hamda robomaktab.uz virtual ta'lim platformasi integratsiyasi asosida minimum talabdagi kompyuter xonasida olib boriladi. To'garak mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishda "Juftini aniqla", "Detalni top", "Tanqidiy fikrla", "Problem solving", "Charxpalak" interfaol metodlari qo'llash yuqori natija ko'rsatdi. Mashg'ulotlar interfaol ta'lim metodlari orqali LearningApps, Wordwall, ThingLink, Hippo video, Explain Everything pedagogik dasturiy vositalaridan foydalanib yaratilgan innovatsion o'quv kontentlari (video ma'ruza, yo'riqnomali videodars, robot modelini bosqichma-bosqich yaratishga asoslangan video dars, ta'limiy o'yinlar, taqdimotlar, minima'ruzalar)dan foydalangan holda mustahkamlanadi.

O'quvchilarga robototexnikani o'rgatish 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich: Virtual robot modelini yasash - Bricklink Studio 2.0, Lego Digital Designer virtual konstruktor dasturi vositasida Lego Wedo 2.0, Lego Mindstorms, 3DTinkerCAD to'plamlarida mavjud detallarni asosida amalga oshiriladi.

2-bosqich: Dasturlash - Lego Mindstorms NXT, EV3 Education dasturi bloklari, SCRATCH, C++ dasturlash tillaridan biri yordamida kodlanadi.

3-bosqich: Tajriba-sinov - Virtual Robotics Toolkit simulyator dasturi, Tinkercad o'quv platformasidan foydalanib Arduino platformasini ishga tushirish asosida robot sinovdan o'tkaziladi. Virtual Robotics Toolkit Lego Mindstorms robotlari uchun ko'p funktsiyali simulyatsion muhiti bo'lib, u haqiqiy modellarning Ldraw 3D virtual modelini import qilib, EV3-G scriptini ishga tushurish orqali simulatsiyalash jarayonini amalga oshiradi. O'quvchilar simulyatorni o'rganish asosida kelajakda Birinchi Lego Ligasi (First Lego League) va Butunjahon Robot Olimpiadasi (World Robot Olympiad) kabi robototexnika musobaqalarida qatnasha olishadi.

"Robototexnika" to'garagi mashg'uloti mazmuniga faqat texnikaviy-konstruksiyalash, ijodiy masalalarni hal qilish emas, balki ularni tajriba orqali, ya'ni detallarni yig'ish, dasturlash va texnikaviy ob'yektni qurish orqali amalga oshirish ishlari ham kiritiladi. O'quvchilarning robototexnika to'garaklaridagi konstruktorlik texnologik faoliyati shartli ravishda to'rt bosqichli baholash mezonini o'z ichiga oldi:


a) reproduktiv bosqich bunda bilish faoliyati va ijrochilik xarakterdagi mehnat funksiyalari uning asosi hisoblanadi;

b) produktiv bosqich bunda bilish faoliyati va ijrochilik xarakterdagi mehnat funksiyalari to'garak rahbari ishtirokisiz amalga oshiriladi;

v) qisman izlanuvchan ijodiy bosqich bunda mustaqil ravishda yangi loyihalar yaratish imkoni yaratiladi;

g) kreativ ijodiy bosqich bunda yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega yangi loyihalar yaratish imkoni yaratiladi;

Natijada mustaqil robotlar yasay oladigan faol fikrlaydigan o'quvchi shakllantiriladi (2-rasmga qarang).









2-rasm. Virtual ta'lim platformasi asosida robototexnika to'garagi mashg'ulotlarini o'qitishning takomillashtirilgan modeli

Robotexnika bo'yicha to'garaklarda TinkerCAD onlayn muhiti orqali bazali modul va datchiklarni o'rgangandan so'ng ular asosida kichik loyihalar yaratiladi. Quyida shunday kichik loyihalardan birini TinkerCad dasturi yordamida "Miltillovch chiroq" loyahasini Arduino platasi orqali amalga oshirishning to'garak mashg'uloti ishlanmasini ko'rib chiqaylik. Ishning bajarilish tartibi 2 bosqichli

bo‘lib, 1-qadamda TinkerCAD virtual detallari hamda dasturlash orqali svetodiodni yoqib-o‘chirish sxemasini texnologik xarita asosida o‘rganib bajarish, 2-qadamda loyihani kodini C++ dasturlash tilida tuzish hamda uni simulatsiya qilish amalga oshiriladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

To‘garak mashg‘uloti texnologik yo‘riqnomasi


| No | Ishni bajarish ketma-ketligi | Texnik chizmasi | Zarur jihozlar |
|----|---|--|---|
| 1 | TinkerCad platformasini brauzerni ishga tushirib https://www.tinkercad.com/ URL manzilini yozib kiring. |  | Kompyuter , internet |
| 2 | Ro‘yxatdan o‘tib, shaxsiy hisob oching. Login parolingizni kiriting. |  | Kompyuter , internet |
| 3 | Loyihalar(Проекты) bo‘limidan Yaratish(Создать) buyrug‘iga bosib Zanjirlar(Цепь) блокинни танланг. |  | Kompyuter , internet |
| 4 | Arduino UNO(1), maket platasi(2), Svetodiod(3), rezistor(4) va ulovchi simlar(avtomatik) olinadi. |  | Arduino UNO, maket platasi, svetodiod va simlar |
| 5 | Arduino UNO va svetodiod o‘tkazgich simlar orqali tegishli “+”, “-” uyalarga ulanadi. Svetodiodning uzun oyoqchasi “+” signal, kalta oyoqchasi esa “-” signalni qabul qiladi. Svetodiod uzun oyoqchasi Arduinoning 13 raqamli oyoqchasiga, qisqa oyoqchasi esa GND oyoqchasiga ulanadi. |  | Arduino UNO, maket platasi, svetodiod va simlar |
| 6 | 2-bosqichda C++ dasturlash tilida svetodiodni yoqish va o‘chirishga asoslangan dastur tuziladi va Arduino UNO platasi (Начать моделирование) burug‘I orqali ishga tushiriladi. |  | |

Keyingi qadam dastur kodini yozish bosqichida C++ dasturlash tili buyruqlari yordamida svetodiodni yoqish va o‘chirish uchun dastur 1-jadvaldagiketma-ketlikda tuziladi va tuzilgan dastur “Kod” oynasida quyidagi tartibda yoziladi (3-jadvalga qarang).

Dastur kodining izohli jadvali

| Dastur ketma-ketligi | Tavsifi |
|----------------------|--|
| void setup () { | setup funksiya blogini chaqirish; |
| pinMode (13,OUTPUT); | svetodiodning uzun oyoqchasi ulangan arduinoning oyoqchasini tanishtirish buyrug'i; |
| } | dastur blogini yakunlash; |
| void loop () { | loop funksiya blogini chaqirish; |
| digitalWrite(13,1); | arduinoning 13 raqamli oyoqchasiga ulangan svetodiodga signal berish (svetodiodni yoqish) buyrug'i; |
| delay(1000); | 13 raqamli oyoqchaga berilgan signalni 1 sekund ushlab turish buyrug'i (svetodiodning yonib turish vaqti); |
| digitalWrite(13,0); | Arduinoning 13 raqamli oyoqchasiga ulangan svetodiodga berilgan signalni uzish (svetodiodni o'chirish) buyrug'i; |
| delay(1000); | 13 raqamli oyoqchadan uzulgan signalni 1 sekund ushlaturish buyrug'i (svetodiodning o'chib turish vaqti); |
| } | dastur blogini yakunlash; |

Quyida robototexnika ta'limiy dasturlari va robomaktab.uz virtual ta'lim platformasi integratsiyasi asosida bir soatlik to'garak mashg'uloti texnologik xaritasi ishlab chiqilgan (3-rasmga qarang).



